# DARSLARNI O‘RGANISHDA DASTURIY SAYTLARDAN FOYDALANISH USULLARI “Flippity.net” SAYTI MISOLIDA

**Ortiqova Iqbol Olimboyevna,**
*UrDUPI “Tarix va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi*
*iqbola@pmkhiva.com*

**DOI:** **https://doi.org/10.5281/zenodo.15170784**

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola geografiya darslarida davlatlarni o‘rganish jarayonida dasturiy saytlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligini o‘rganadi.Dasturiy saytlar o‘quvchilarga davlatlar haqida keng qamrovli ma’lumot olish, ularning geografik o‘rni, tabiati, aholisi, iqtisodiyoti, siyosiy tuzumi, madaniyati va boshqa xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Maqolada o‘qituvchilar uchun tavsiyalar beriladi va kelgusida o‘rganilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rsatiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *geografiya ta’limi, davlatlar, dasturiy saytlar, internet resurslari, ta’lim samaradorligi, AKT, interaktiv ta’lim, mustaqil o‘rganish, ma’lumotlar tahlili.*

**Kirish.** XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim sohasida muhim o‘rin egallab, o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, geografiya ta’limida ham zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, geografik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

“Flippity.net” dasturiy sayti geografik ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarni vizual ravishda namoyish etish, o‘quvchilarning bilimlarini sinash va ularni baholash imkonini beradi. Masalan, “Davlatlar poytaxtlarini aniqlang”, “Geografik koordinatalar bo‘yicha joylashuvni toping”,“Iqlim mintaqalarini ajrating” kabi interaktiv topshiriqlarni“Flippity.net”sayti yordamida osonlik bilan yaratish mumkin [2,3].

**1-qadam.**

Google.Sheetsga kirib [https://flippity.net//[EQmF3eEY3QnHCtYvtGKyF6tvDAQziZpJ9xRzreyTo] “Flippity.net” havolasini oling. “Flippity.net” saytida 27 ta shabloni mavjud. Bu shablonlardan barcha fanlardan qiziqarli savollar yaratishga qulay [7].
















"Flippity.net" dasturiy sayti geografiya ta'limida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, geografik tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradigan samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.




3-qadam. 10-ta ma'lumot berilgan.1-chi davlatni tanlaymiz va ma'lumotlarni ketma ketlikda ko'rib chiqamiz.Har bir davlat haqida yetalicha ma'lumot berilgan

( qirralarga joylashtirilgan)

4-qadam.Davlat haqida qiziqarli ma'lumot va 3-qirrada o'rganilayotgan davlat bayrog'i ko'rsatilgan.Har bir davlat bayroqlari rasm ko'rinishida tasvirlangan.10 -ta davlatni bayroq rasmi joylashtirilgan.

5-qadam Davlat siyosiy xaritasi joylashtirilgan.Xarita orqali mavzuni o'quvchilarga batafsil tushuntirish mumkin. Davlatni joylashgan geografik o'rni ,davlat rivojlanishida tabiiy va iqtisodiy chegaralarning ahamiyati haqida o'quvchilar qiziqarli tahliliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.




6-qadam .O'rganilayotgan davlat tarixi va siyosiy jarayonlari haqida ma'lumot kiritilgan.




7-qadam.O'rganilayotgan davlat haqida video ko'rsatma.Davlat geografik o'rni ,tabiiy va iqtisodiy resurslari yi yirik shaharlari,aholining turmushtarzi yashash darajalari haqida qiziqarli videolarni ko'rishingiz mumkin.




8-qadam .O'rganilayotgan davlat haqida qo'shimcha vikipediya ma'lumotlari joylashtirilgan. Barcha qirralardagi ma'lumotlarni geografiya dars jarayonlarida foydalanishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, "Flippity.net" dasturiy sayti geografiya darslarida samarali ta'lim vositasi bo'lib,o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish,ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam

beradi. Geografiya o'qituvchilari ushbu saytdan foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishlari mumkin. Kelajakda "Flippity.net"saytining boshqa ta'lim sohalaridagi imkoniyatlarini o'rganish va uning yordamida yangi o'quv materiallarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prensky,M.(2001)Digital Natives,Digital Immigrants Part 1.On the Horizon, 2. Koehler,M.J.,Mishra,P.(2009).What is technological pedagogical content knowledge? Contemporary Issues inTechnology andTeacher Education, 9(1),60
2. Zhao,Y.,Lei,J.,Yan, B.,Lai,C.,Tan, H.S(2005)What Makes theDifference? A Practical Analysis of Research on the Effectiveness of Distance Education. Teachers College Record, 107(8), 1836-1884.
3. Dichev, C.,Dicheva, D. (2017).Gamification in Education: A Systematic Mapping Study.Journal of Educational Technology Society, 20(3), 75-96.
4. Lee,J.J.,Hammer,J.(2011).Gamification in Education: What, How, Why Bother? Academic Exchange Quarterly, 15(4), 146-156.

Veb-Saytlar:

5. Flippity.net:([https://www.flippity.net/](https://www.flippity.net/))
6. Google forEducation: ([https://edu.google.com/](https://edu.google.com/))
7. TeachersFirst:([https://www.teachersfirst.com/](https://www.teachersfirst.com/))